



ARALASH TA'LIMNING MODELLARI VA TARKIBIY QISMLARI

Azaerbaeva Elmira Muratbaevna

NDPI tayanch doktorant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20917185>

Annotatsiya: Ushbu ishda aralash ta'lim modelining ta'lim jarayonidagi ahamiyati, aralash ta'limning turlari, tarkibiy qismlari, modellari hamda vazifalari haqida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Aralash ta'lim, an'anaviy ta'lim, elektron ta'lim, mustaqil ta'lim, interaktiv foaliyat, amaliy mashqlar, modellar.

Bugungi rivojlanayotgan ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga juda katta urg'u berilmoqta sababi ushbu usul ta'limda juda ahamiyatli bo'lgan o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishga katta hissa bor. Shuningdek, fanlarni o'qitish jarayonlarida ushbu pedagogik texnologiyadan foydalanish orqali innovatsion yondashuvni tashkil etish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ta'limda o'qitish usuli faqat nazariy emas balki amaliy ko'nikmalarni ham talab qiladi, shu sababdan ham an'anaviy ta'lim bilan bir qatorda zamonaviy pedagogic usul a metodlardan foydalanish zaruriyatini tug'diradi.

Aralash ta'lim (blended learning) – bu an'anaviy sinf darslari bilan raqamli texnologiyalar asosidagi ta'limni uyg'unlashtirgan holda tashkil etiladigan o'qitish shaklidir. Ushbu metod o'quvchilarning darsdagi faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda individual yondashuvnikuchaytiradi.

Ta'limda aralash ta'lim metodidan foydalanish o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi, eksperiment va kuzatishlarga qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Aralash ta'lim modeli elektron ta'lim bilan an'anaviy ta'lim jarayonlari birlashadigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu ta'lim usulida o'quvchilar sinf darslarida hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil bilimlarini ham oshirishlari mumkin. Aralash ta'lim zamonaviy ta'limda juda ahamiyatli bo'lib, an'anaviy hamda raqamli ta'lim shakillarini integratsiya qiladi. Oquvchilarda raqamli madaniyatni shakllantiradi va axborotlar oqimidan tog'ri foydalanishga o'rgatadi [2]. Ushbu ta'lim turining eng ahamiyatli va natijali tomoni shundaki, ta'lim jarayoni oquvchilar uchun yanada qulay bo'ladi, jarayon samarali hamda interaktiv usullarda bo'ladi. Ushbu ta'lim usulida oquvchilar





faqat oqituvchining tushuntirishlariga tayanib qolmasdan, mustaqil tarzda elektron resurslar hamda virtual kitobxonalardan foydalangan holda ta'lim olishga muvaffaq bo'ladilar.

Aralash ta'lim modeli bir qancha tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Ular quydagicha;

- An'anavit ta'lim;
- Electron ta'lim;
- Mustaqil ta'lim;
- Interaktiv foaliyat;
- Amaliy mashqlar;

Ushbu tarkibiy qismlardan foydalangan holda oquv jarayonining samaradorligi oshishga erishiladi. Aralash ta'lim modelida oquvchilar faqat bilimlarini emas balki axborot resurslaridan foydalanish, o'qotuvchilar bilan samarali birga ishlashishni organadi hamda muloqat qilish kompetensiyasi rivojlanadi [1].

Aralash ta'limning bir qancha modellari mavjud bo'lib, ular darsda qo'yiladigan maqsad va vazifalarga qarab tanlab olinadi.

Rotation modeli;

Ushbu modelda oquvchilar har xil foliyat turlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi va ushbu harakatlarni malum vaqt oralig'ida bajaradilar.

Masalan; o'qituvchi bilan va gruh bilan ishlash, kompyuter texnologiyalari yoki laboratoriya ishlarini bajarish.

Flex modeli;

Ushbu modelda asosan o'qituvchi maslahat beruvchi vazifasini bajaradi hamda oquvchilar internet tarmog'i orqali masofadan ishlarni amalga oshiradilar.

Flipped classroom modeli;

Oquvchilar keyingi o'tiladigan yangi mavzuni uyda mustaqil tarzda internet tarmog'i materiallaridan va videodan ko'rib nazariy bilimlarga ega bo'ladi. Dars paytida esa amaliy tajribalar amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan aralash ta'lim modellari nafaqat oquvchilarning bilmlari balki tafakkurini, mustaqil ta'lim jarayonlarini rivojlantiradi va dars jarayoning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. M.R. Sobirova. "Blended learning" – zamonaviy ta'lim texnologiyasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science. Volume 2, Issue 5/2. ISSN 2181-1784. May 2022. P 292-297.
2. J.Matnazarov. Aralash ta'lim resurslari vositasida talabalarning kiberijtimoiylashuvini optimallashtirishning didaktik imkoniyatlari metodik





ta'minoti. Qo'qon universiteti xabarnomasi, vol (18), 97-99, 17.04.2026.
<https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1590>

